

TIL - MILLAT KO'ZGUSI

Sherpulatova Sevara Panji qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 8/25-guruh 1-bosqich talabasi

Otiboyeva Kamola

Ilmiy rahbar :

Annotatsiya: *Maqolada tilning millat hayotidagi o'rni va ahamiyati, o'zbek tilining tarixiy shakllanish jarayoni hamda uni asrashning muhimligi haqida ma'lumot berilgan. Til - millat ko'zgusi sifatida insonning o'zligini ifoda etuvchi eng muhim vosita ekanligi haqida yoritilgan. Ushbu maqola asosan o'zbek tilining boyligi, go'zalligini qadrlashga va uni asrab - avaylashga undaydi.*

Kalit so'zlar: *til, millat, madaniyat, o'zbek tili, qadriyatlar, meros, o'zlik, ma'naviyat, davlat tili.*

Аннотация: *В статье рассматриваются роль и значение языка в жизни нации, исторический процесс формирования узбекского языка, а также важность его сохранения. Освещается идея о том, что язык, как зеркало нации, отражает самобытность и духовный мир человека. В статье подчеркивается необходимость сохранения, развития и передачи будущим поколениям богатства и красоты узбекского языка.*

Ключевые слова: *язык, нация, культура, узбекский язык, ценности, наследие, самобытность, духовность, государственный язык.*

Abstract: *The article examines the role and importance of language in the life of a nation, the historical development of the Uzbek language, and the significance of preserving it. It emphasizes that language, as a mirror of a nation, reflects the identity and spiritual world of an individual. The article highlights the importance of valuing, protecting, and passing on the richness and beauty of the Uzbek language to future generations.*

Key words: *language, nation, culture, Uzbek language, values, heritage, identity, spirituality, state language.*

KIRISH

Har bir millatning o'ziga xosligi , qadriyati va ruhiyati, avvalo uning tilida namoyon bo'ladi. Til - bu xalqning yuragi va o'zligini namoyon etuvchi asosiy boyliklarimizdan biridir . O'zbek tili - xalqimizning g'ururi , faxri va milliyligimizning ajralmas qismidir . Bugungi rivojlanayotgan davrda , ona tilimizni asrash, uni yanada keng targ'ib qilish , rivojlantirish va ulg'ayib kelayotgan har bir yosh avlod qalbida ona tilimizga nisbatan muhabbat uyg'otish , har birimizning muqaddas burchimizdir .

O'zbek tili asrlar davomida xalqimizning tarixiy xotirasi va ma'naviy boyligini o'zida saqlab kelmoqda . tarixiy manbalarda qayd etilishicha , o'zbek tili XI asrdan boshlab , mustaqil til sifatida shakllana boshlagan . XIII - XIV asrlarda eski o'zbek adabiy tili vujudga kelgan . Aynan o'sha davrlardan boshlab , u adabiyot , san'at va ilm - fan tiliga aylangan .

Bugungi kunda o'zbek tili mustaqil yurtimizning faxrli timsoli va milliy o'zligimizni ifoda etuvchi asosiy boyligimizdir .

Bundan qariyb 36 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi . Bu esa o'z davrining tom ma'noda olamshumul voqeasi bo'lgan edi . Chunki , Alisher Navoiy , Ibn Sino , Mirzo Ulug'bek ,Beruniy va Amir Temur kabi buyuk siymolarni yetishtirgan xalqning tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi .

Davlatimizning mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davridayoq , birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan 1989-yil 21-oktyabr sanasida ona tili - o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

Shundan so'ng , barcha rasmiy hujjatlar, qarorlar va ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarning barchasi , o'zbek tilida yuritila boshlandi. Bu mamlakatimizning, yurtdoshlarimizning hayotidagi eng unutilmas , tarixiy voqeaga aylandi.

O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi va har yili 21-oktyabr yurtimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi,ona tilimizga bo'lgan cheksiz hurmat, ma'naviyatimizga bo'lgan yuksak e'tibor namunasidir . Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning : "...o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi , avlodlar o'rtasidagi ruhiy - ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi . Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali , ona allasi , ona tilining betakror jozibasi bilan singadi .

Ona tili - bu millatning ruhidir “ - degan so'zlari ona tilimizning naqadar yuksakligi, ahamiyatligini anglatadi. Ona tilimizga bo'lgan e'tibor nafaqat mamlakatimizda , balki uni xorijiy mamlakatlarning adabiyotshunos olimlari tomonidan o'rganilib , o'zbek tilining jahon tillari orasida eng go'zal va nafis til ekanligi , boy tarixga egaligi e'tirof etib kelinmoqda .

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Oksford universitetida o'zbek tilini o'rganish dasturining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etib , o'z nutqida Oksfordni global muloqotlar uchun eng munosib joy sifatida ta'kidlab, shunday dedi : “O'zbekiston uzoq yillar yopiq davlat bo'lib kelgan .

Bugun esa u ilm - fan , texnologiya , taraqqiyot va eng asosiysi - muloqot uchun ochiq mamlakat .” degan so'zlari ona tilimizda yangrayotgan ishonch , faxr va o'zlik tuyg'usining aks - sadosi bo'lib , millatimizning yangi davrga qadam qo'yganini bildiradi .

Til xalq ijtimoiylashuvida juda ham muhim ahamiyatga ega. Hattoki “YUNESKO tomonidan 21-fevral - Xalqaro ona tili kuni deb ham e'lon qilingan. Buning sababi bo'lsa, 1952-yil 21-fevralda bo'lib o'tgan voqea - Bangladeshning Dakka shahrida o'z ona tili - Bengal tilini davlat tili darajasiga ko'tarish va uni himoya qilish maqsadida shahar ko'chalariga chiqqan talabalarning politsiya xodimlari tomonidan o'qqa tutilishi bilan bog'liqdir”. Keyinchalik aynan shu sana 2000-yildan buyon xalqaro miqiyosda nishonlanib kelinmoqda.

Ona tili kunining xalqaro miqiyosda nishonlanishi ham har bir xalqning, millatning o'zining an'analari, milliy tafakkuri hamda ularning ruhiyatining mazmuni, markazi ya'ni o'zagi hamda ularning tiliga bo'lgan muhabbatining aksini ifodalaydi.

Ona tili kuni aniq bir kun ya'ni bayram sifatida nishonlanishi bu o'sha xalqning o'z tiliga bo'lgan muhabbatini yanada orttirishg, til haqidagi tushunchalarini kengaytirish va yangilashga, ularning o'z tilini yanada kuchliroq hurmat qilgan holda o'zligini, asl ko'rinish-u mohiyatini yo'qotmasliklariga ulkan hissa qo'shadi. Ayniqsa kichik yoshdagilarning tilga bo'lgan muhabbatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tilni mamlakatning qimmatbaho boyligi va mulki desak ham bo'лади. Agar milliy tilga putur yetsa bu xalq ham parokandalikka yuz tutishi va uning o'zligiga dog' tushishi mumkindir. Tilni sevish millatni, an'analarni hamda qadriyatlarni-yu o'zlikni sevish va qadrlash bilan barobardir.

Milliy tilni millat ko'zgusi deyishimiz ham bejiz emas. Chunki o'zimizning milliy til orqali millatning necha asrlik ko'xna va boy tarixi, madaniyati, qadriyatlari ham o'zbek tili - ona tilimiz orqali shakllanib bizgacha yetib kelgan. Boshqa ko'plab davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham ko'plab sohalar va yo'nalishlar singari ona tilimizga bo'lgan e'tibor ham tobora kuchaymoqda va uning qadr-qimmatini, nufuzi ham ortib bormoqda. "Tarixga nazar tashlasak ham 1989-yil 21-oktabr kuni yurtimizda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan.

O'zbek tili - ona tilimiz davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi". Aynan shu kun O'zbek millatining tarixiga zarxal harflar bilan bitildi va bu kun orzulari amalga oshmasdan qolgan va o'z maqsadlariga yeta olmayotgan hamda qorong'u tunda qolgan o'zbek xalqining hayotida xuddi chaqmoq chaqishi yoki kun chiqishidek yorug'lik va kelajakka bo'lgan umidlarini va ruhini uyg'otdi hamda o'zbek tilining xalqaro miqiyosdagi obro'si va nufuzini ko'tardi. So'ngra "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

"Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon qilish bilan bir qatorda uni ilmiy rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berdi". Tilga bo'lgan e'tibor va uni rivojlantirish uchun bo'lgan harakatlar faqat hozir emas balki oldindan shakllanib kelgan. Ko'plab olimlar ham til go'zalligini o'rganish va uni yanada jozibali qilish uchun ko'plab ishlar olib borishgan.

Jumladan "V. Fon Xumbelt "Til - madaniyat ko'zgusi" degan fikrning asoschisi hisoblanadi. Ushbu fikr davomchilari hisoblangan boshqa olimlardan biri Ter - Minasovning yozishicha: "Til, tafakkur va madaniyat shu qadar zich bog'langanki, amalda ayni uch unsurdan tarkib topgan yaxlit butunlikni tashkil qiladi, ularning birontasi boshqa ikkisisiz yashay olmaydi". Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2022 yilni - Ko'p tilli ta'limda texnologiyadan foydalanish: muammolar va imkoniyatlar yili deb e'lon qilgani ham bejiz emas. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi.

Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, shu munosabat bilan har bir insonning o'z Vatani va ona tiliga bo'lgan muhabbati, hurmat-ehtiromi hamda uni qadrlash tuyg'ulari yangilanadi.

Milliy til - xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'ana va madaniyatlarni saqlaydi, avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Til - mamlakat timsoli, qimmatbaho mulkdir. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushishi turgan gap. Tilni sevish, ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til - millat ko'zgusi, deb bejiz aytishmagan.

Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili - ona tilimiz ta'sirida shakllangan. So'ngi yillarda O'zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona

tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlarimiz ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Buning tasdig'i o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro'-e'tiborini tubdan oshirish bo'yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Tarixga bir nazar: 1989-yil 21-oktyabr kuni yurtimizda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilindi.

O'zbek tili - ona tilimiz davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi esa ona tilimizning nufuzini yanada yuksaltirdi. Davlatimiz madhiyasi xalqaro maydonlarda o'zbek tilida yangray boshladi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda baralla yangrab, tinchlik, do'stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 21-oktyabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Unga muvofiq, "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2020-yil 20-oktyabrda esa Prezidentimizning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. 21-oktyabr O'zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida mustahkamlanganidek, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to'laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'lda milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, har bir xalqning turmush tarzi, urf - odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topgan. Til - millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmaganidek, xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllanib kelmoqda. Biz o'z ona tilimizni asrab - avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz va dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Til - bu millat quyoshi. U nur sochmas ekan adabiyot yaratilmaydi, tarix esa, oddiy o'tmishligicha qolaveradi. Vatanga muhabbat - eng avvalo, tilga muhabbatdan boshlanadi. Mamlakat qudratining ifodasi ham, ifodalovchisi ham til hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent. 2008. 125.

2. S.Mirziyoyeva “ ” gaz 2025-yil 15- oktyabrdagi ma’ruzasi
3. Ziyonet.uz
4. “Til - madaniyat ko’zgusi”. Rasulova Rayxon-maqola-2024
5. Abdukamol Po’latov maqola-2022